

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA VA SAN‘AT FAKULTETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI YO‘NALISHI

402-GURUH TALABASI

XOLMETOVA DILOROM BAHODIROVNA

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”
asarida ona mavzusi va uning o‘rta maktabda o‘rganilishi**

Mundarija

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida ona mavzusi va uning o‘rta maktabda o‘rganilishi

Kirish. Ishning maqsad va vazifalari.....	3-8
I bob. O‘tkir Hoshimov nasrida “Dunyoning ishlari” qissasining o‘rni	
1.1. 5-sinfda O‘tkir Hoshimov ijodi haqida umumiy ma’lumot berish.....	9-21
1.2. “Dunyoning ishlari” qissasining mavzu va g‘oyasi.....	22-39
II bob. “Dunyoning ishlari” qissasini o‘rganishda yangi ped texnologiyalardan foydalanish	
2.1. “Gilam paypoq”, “Alla” va “Haqqush” boblarini o‘rganishda innavatsion usullardan foydalanish.....	40-53
2.2. “Qarz” va “Iltijo” boblarini o‘rganishda noan’anaviy metodlarning ahamiyati.....	54-63
Xulosa	64-67
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	68-70

Kirish. Ishning maqsad va vazifalari

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqi tarixida, taqdirida yangi bosqich boshlandi. El-yurt milliy qadriyatlarni e'zozlagan va rivojlantirgan holda umumbashariy mezonlar asosida yashay boshladi.

Badiiy adabiyotda tasvirlanguvchi inson qalbi va ongida ro'y berayotgan evrilish va o'zgarishlarning sir-sinoatlarini, sabab-oqibatlarini, ularning jamiyat ravnaqi va zamondosh kamolotidagi o'rnini, binobarin, shularni yuzaga chiqaruvchi yozuvchi mahoratini zug'umli siyosat va mafkura emas, umumbashariy, insonparvar mezonlar va milliy qadriyatlar asosida, badiiy ijodiyotning ichki qonuniyatlariga asoslanib o'rganish, tadqiq etish lozimligi bugungi adabiyotshunoslik oldiga yangi-yangi vazifalar qo'yadi. Avvalgi bosqichlarda yaratilgan asarlarni ham istiqlol g'oyalari bilan chambarchas aloqadorlikda o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridani biri bo'lib qoldi.

Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo''tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Ona butun bir xalq, butun bir millatning o'zisha xosligi, shakllanishi, namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi siymodir, va, ayni vaqtda har bir inson kabi jamiyat, muhit, sharoitning vakili sifatida o'ziga xos bir invidumdir. «Odamning qalbida qanday olijanob tuyg'ular mavjud bo'lsa, ularning barchasi avvalo onadandir»¹.

SHu ma'noda, o'zbek xalqiga mansub ona siymosining badiiy adabiyotda tasvirlanishini, bu tasvirdagi o'ziga xosliklarni o'rganish, bu obrazni badiiy yoritishdagi yozuvchi uslubi va mahoratini tahlil etish – bir jihatdan xarakter yaratilishiga ko'ra badiiy adabiyotimizning milliy fazilatlarini ochishda, va ikkinchi jihatdan, o'zbek xalqidagi milliylikni ko'rsatishda o'ziga xos ahamiyatga egadir.

¹ Karimov I.A. Vatan va xalq mangu qoladi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. –B. 136.

O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovdir. Adib asarlarida Ona obrazi shu qadar mustahkam va muhim o'rin tutadi, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. Ona insonga hayot beradi, yuvib-taraydi, tarbiyalaydi. Ona uchun eng to'liq narsa, o'g'ilmi-qizmi, uning farzandi. Ona o'z farzandi uchun hamma narsaga, hatto jonini qurbon qilishga ham tayyor. SHuning uchun bo'lsa kerak, ona haqida behisob she'rlar to'qilgan, dostonlar yozilgan, katta-katta asarlar bitilgan. Kichik maqollardan tortib, muborak hadislarimizgacha ona madh etiladi, e'zozlanadi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfida o'rganiladigan "Dunyoning ishlari" qissasi xarakterlidir. Adib O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi yillik mukofoti bilan taqdirlangan "Dunyoning ishlari" qissasini yaratib, ma'naviyat haqidagi bahsni davom ettirdi va o'zbek Onasiga haykal qo'ydi. Qissaga taniqli ijodkor va adabiyotshunos olimlar Said Ahmad, O.Sharafiddinov, A.Rasulov, U.Normatov, B. Nazarovlar yuqori baho berganlar. Bundan tashqari adabiyotshunos O.Duysenbayevning "O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasida adib asarlaridagi ona obrazi tahlil qilingan¹.

Asar 80-yillar o'zbek nasrida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, samimiy, sodda, munis va mehribon Ona siymosining mukammal obrazini yaratgani bilan alohida qadrlidir. Qissa ma'lum ma'noda avtobiografik xarakter kasb etadi va yozuvchi hayotida ro'y bergan qiziqarli, muhim voqealar qalamga olinadi. 4 soat dars mashg'ulotlari mobaynida qissadagi xarakterli hikoyalar tahlil qilinib, Ona obrazining to'laqonli siymosi ochib beriladi. "Gilam paypoq", "Alla", "Haqqush", "Qarz", "Iltijo" hikoyalarida turli voqealar qalamga olinsa-da, ularda o'zbek oilalaridagi ona va farzand munosabatlari, bahri keng insonlar taqdiri, ularning ezgu amallari bo'rtib turadi. Qissa 33ta katta-kichik novellalardan tashkil topgan bo'lib, Ona obrazi ularning barchasini tutashtirib turadi. Asardagi hikoyalar o'quvchini hayajonga soladi, entiktiradi, ta'sirlantiradi. Ona siymosiga bo'lgan samimiy tuyg'ularimizni, mehr-

¹ Duysenbayev O. O'tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Fil.fan.nomz.avtoreferati.-Toshkent. 2012. 26 b.

muhabbatimizni yanada oshirishga xizmat qiladi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida ona mavzusi talqini va uning o‘rta maktabda o‘rganilish metodlarini ko‘rsatib berish bitiruv malakaviy ishimizning maqsadidir.

SHu maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni o‘z oldimizga qo‘ydik:

- 5-sinfda O‘tkir Hoshimov ijodi haqida umumiy ma’lumot berish;
- “Dunyoning ishlari” qissasining mavzu va g‘oyasini ko‘rsatib berish;
- Ona obrazining yaratilishidagi o‘ziga xosliklarini o‘rganish;
- Asar milliyligini ta’minlashda Ona obrazining o‘rnini belgilash;
- Asarni o‘rganishda noan’anaviy usullarning ahamiyatini ko‘rsatish.

Bitiruv malakaviy ishimiz mohiyati asosiy ikki bobda bayon qilingan.

I bob. O‘tkir Hoshimov nasrida “Dunyoning ishlari” qissasining o‘rni

1.1. 5-sinfda O‘tkir Hoshimov ijodi haqida umumiy ma’lumot berish.

Maktabda badiiy asar o‘rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib xulosalar chiqarishga uruniladi. Badiiy asar tahlilidan ilmiy xulosalar chiqarmoq uchun yozuvchining pozitsiyasining tushunish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa ijodkorlarning tarjimai xoli bilan tanish bo‘lish talab etiladi. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo‘lganligidan habardor bo‘lish mumkin. Maktab adabiy ta’limida yozuvchilar hayoti va ijodi, tarjimo xoli ikki sababga ko‘ra o‘rganiladi:

1) Adiblar millat ahlining diqqat e’tiborida turgan kishilar , ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o‘quvchilar uchun namuna bo‘ladigan jihatlar ko‘p. Binobarin, yozuvchi hayoti o‘quvchilarga ma’naviy namuna maktabi sifatida o‘rgatiladi.

2) Adiblarning hayot yo‘li, sa’jiiyasi asarlarida o‘z nuqsini qoldiradi. Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yo‘llari va shaxsiyatlari borasidagi ma’lumotlar ularning asarlarini tushunishga kalit hamdir.

Yozuvchi biografiyasi haqidagi ma’lumot hamma sinflarda ham beriladi. Ammo o‘smir yoshidagi o‘quvchi bilan o‘spirin yoshidagi o‘quvchining adiblar tarjimai xolini o‘rganish o‘ziga xos didaktik jarayonlar tarzida kechadi.

O‘smir yoshidagi bolalar yoki 5-6-sinflarning o‘quvchilari hali adabiy asarlar yaratish badiiy zaruriyat ekannini unchalik tushunmaydilar. Buning ustiga ular adib shaxsiyatining badiiy asarda aks etishini ham to‘liq anglamaydilar. Shu sababdan ham 5-8-sinflarning darsliklarida yozuvchilar haqida o‘quvchilarga eng umumiy ma’lumotlar berish bilan kifoyalanadi. Odatda, 5-8-sinflarda adiblarning biografiyalarini o‘rganishiga alohida soat ajratilmaydi. Binobarin, yozuvchi haqida uzoq to‘xtalish zaruriyati yo‘q. Shuning uchun darsliklarda o‘quvchilarning o‘zlari o‘qib olishlari mumkin bo‘lgan ma’lumotlar beriladi. Bu yoshdagi o‘smirlarda hissiy

bilish kuchli bo‘ladi, abstrakt tafakkur, bilishning diduksiya usuli yetarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Shu bois ko‘rgan, sezgi organlari orqali qabul etilgan tushunchalar mustahkam o‘zlashtiriladi. Sabab- oqibat bog‘lanishlari haqidagi mulohazalar unchalik anglashilmasligi mumkin.

O‘smir yoshidagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari boshqacha rivojlangan bo‘ladi. Ularda inson shaxsining jamiyat tomonidan shakllanishi, bir jamiyatda turib, yashab turib , undan tashqarida turishning imkonsizligi haqida muayyan qarashlar mavjud. Demak, yozuvchi shaxsiyati, ma’naviyati bu sinf o‘quvchilarining axloqiy sifatlariga ta’sir etishi mumkin. Yuqori sinflardagi mashg‘ulotlarda o‘qituvchi adib shaxsiyati qirralarining, u qachondir boshidan kechirgan voqealarning asarlarda qay tarzda namoyon bo‘lishiga alohida e’tibor berish kerak . Katta maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘zlari intensiv ravishda shaxs sifatida shakllanib borayotganliklari uchun yozuvchilar shaxsiyatiga astoydil qiziqadilar. O‘qituvchi adib qarashlarning, kayfiyatlarining tadrijiy yo‘li bu yo‘lning asarlarda aks etishi kabi muammolarni yuqori sinf o‘quvchilariga aniqlab olgani ma’qul. Bu xol, birinchidan o‘quvchilarning avval bilganlarini esga solib, ma’ruzani o‘zlashtirishda bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan, berilayotgan bilim mustahkam ilmiy poydevor ustiga qurilib,yaxshiroq esda qoladi.O‘quvchilar o‘ylashga majbur bo‘lishadi. O‘ylash jarayoni ularning yangi bilimlarni o‘zlashtirishlariga ham qo‘l keladi.

O‘qituvchi adib haqida gapirar ekan uning hayotidagi u yoki bu voqeani shunchaki sodir bo‘lgan fakt sifatida emas, balki bo‘lajak sanatkorning ijodiy qiyofasini belgilaydigan omil sifatida yoki biror asarning bitilishiga turtki sifatida talqin etsa maqsadga tushuntirishi zarur. Buni sinf o‘quvchilari bir yozuvchi uslubining boshqasidan farqli ekanligi sabablatini adiblar voyaga yetgan muhitdan, ularning harakter xususiyatlaridan qidirishni o‘rganishlari kerak.

5- sinfda O‘tkir Hoshimov iodi va uning “Dunyoning ishlari” asarini o‘rganishga 4 soat vaqt ajratilgan. Birinchi darsda yozuvchi hayoti va ijodi haqida to‘xtalib, “Dunyoning ishlari” asarining mazmun-mundarijasi aytib o‘tiladi. Hozirgi

adabiyotimizning koʻzga koʻringan namoyandalaridan biri Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Oʻtkir Hoshimovdir. U qariyb qirq yildan buyon oʻzining ajoyib publitsistik maqolalari, hikoya, qissa va romanlari bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib ulush qoʻshib kelmoqda. Oʻtkir Hoshimov 1941-yil ning 5 avgustida Toshkent viloyatining tumani Doʻmbirobod mavzeida dunyoga kelgan. Bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. 1958 yilda oʻrta maktabni oltin medal bilan bitirgach , Toshkent davlat universiteti jurnalistika boʻlimida avval sirtqi, keyin kunduzgi boʻlimda tahsil oldi. 1964 yilda tugatadi. Oʻquvchilik yillaridan jurnalistik faoliyati bilan shugʻullangan. 1959-1960-yillarda “Temir yoʻlchi”, 1960 yilda hozirgi “Oʻzbekiston ovozi”, 1960-1982-yillarda “Toshkent haqiqati”, “Toshkent oqshomi”, 1982-1983-yillarda Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida, 1985-1995-yillarda “SHarq yulduzi” jurnalida bosh muharrir va 1995 yildan 2004 yilgacha Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qoʻmitasi raisi sifatida faoliyat koʻrsatib keldi.

Oʻtkir Hoshimov ijodini 60-yillardan sheʼr va ocherklar , publitsistikadan boshladi. Uning birinchi kitobi “Poʻlat chavandoz” nomi bilan bosilib chiqqan. Ilk hikoyasi esa 1963 yili “Toʻrt maktub” nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik mazkur hikoya asosida “CHoʻl havosi” (1963) qissasi yaratilgan. Shu yili “Sharq Yulduzi” jurnalida Oʻtkir Hoshimovning “Choʻl havosi” jajjigina qissasi bosildi-yu, muallif kitobxonlar orasida mashhur boʻlib ketdi. Qissa tanqidchilik oʻrtasida ham mashhur boʻlib ketdi.

Abdulla Qahhor yosh muallifga shunday maktub yoʻlladi:

“Oʻtkir !

Choʻl havosi”ni oʻqib suyunib ketdim. Birdan lov etgan alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq boʻladi, qissa juda sof, samimiy iliq, tabiiy, rohat bilan oʻqiladi.

Qissaning xat shaklida boʻlishi koʻp joylarida ritmni buzadi, soʻzni cheklab qoʻyadi. Hikoya birinchi shahs tilidan olib borilsa, ham shunday boʻlar edi. Buni oʻylang, hisobga oling.

Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon to`htamasin!
Hurmat bilan Abdulla Qahhor”.

Ushbu asar yoshlar hayotiga bag`ishlangan bo`lib, unda ilk muhabbat, totli visol onlari, dastlabki iztiroblar haqida hikoya qilinadi. O`tkir Hoshimovni bu muvaffaqiyat ruhlantirib yubordi. U 30 dan oshiq katta-kichik nasriy asarlar yaratdi.

SHundan so`ng uning “Odamlar nima derkin”, “SHamol esaveradi” qissalari maydonga keldi. Ayniqsa, adibning “Bahor qaytmaydi”(1970), “Qalbingga quloq sol”(1973) qissalari yozuvchiga shuhrat keltirdi.

O`tkir Hoshimov ijodiga hos bo`lgan hususiyat qissadan – qissaga kuchayib boradi. Uning “Bahor qaytmaydi” qissasida bosh qahramon Alimardon To`raevning hayot yo`li aks ettiriladi.

Alimardon To`raevning ma`naviy dunyosi asar drammatizmida haqqoniy ochilib beriladi. Jumladan, qissaning tugallanmasi ayrim kitobxonlarga ma`qul kelmasligi ham mumkin. Qissa oxirida Alimardonning halok bo`lishi shartmi? Bu yozuvchining ixtiyorida. Har ikki holatda ham uni diyonatiga putur yetmaydi. Xullas, gap xotimada emas, balki asar qahramonlarining munosabatlarida, shu munosabatlar asosida yaratilgan hayot haqiqatidadir. Tabiat unga ajoyib talant-ne`mat inom etdi, ammo u buning qadriga yetmadi. U o`z iste`dodiga ham, o`g`li Shavkatjonning taqdiriga ham e`tibor bermadi. Chunki, u yoshligidanoq, o`zini o`ylaydigan xudbin bo`lib o`sgan edi, xuddi shu xudbinlik uni fojiaga olib keladi.

Muqaddamga uylangach, uni ho`rlay boshlaydi, O`ziga-o`zi mahliyo bo`lib, muhlis va tomoshabinlarini mensimay qo`yadi. Etiqodsizlik, mas`uliyatsizlik, o`tkinchi mayllarga berilishlik, umuminsoniy qadriyatlarni mensimaslik Alimardonni fojiaga olib keladi.

O`tkir Hoshimovning romannavislik faoliyati ham ibratli. U «Nur borki, soya bor» (1979), «Ikki eshik orasi» (1986), «Tushda kechgan umrlar» (1992) kabi yirik asarlarni yaratib, romanchiligimiz rivojiga munosib hissa qo`shdi. Adib o`z romanlarida hayotdagi nurli tomonlarni aks ettirish bilan birga, soyalar (salbiy hodisa va nusxalar)ni ham ustalik bilan ko`rsatib bergan. Binobarin, bu romanlar mavzuning

yangiligi, hayotiy voqea-hodisalarning yangicha talqini, xarakterlarning jonli va yorqinligi, sujetning qiziqarliligi, uslubning ravonligi, tilning obrazliligi bilan kitobxonlarga manzur bo'ldi.

O'tkir Hoshimov "Nur borki, soya bor" romanida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg'unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma'naviy ahloqiy masalalarini ko'tarib chiqdi. SHundan so'ng u yana bir go'zal asarni – O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasining Oybek nomidagi yillik mukofoti bilan taqdirlangan "Dunyoning ishlari" qissasini yaratib, ma'naviyat haqidagi bahsni davom ettirdi.

O'tkir Hoshimov ijodida "Ikki eshik orasi" romani alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o'z ichiga olgan va bir qator chigal, murakkab taqdirlar misolida o'z xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. «Ikki eshik orasi» romanida voqea Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, asosan ikkinchi jahon urushi yillarida bo'lib o'tadi. Shu bilan birga, adib asarda o'rni-o'rnida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan ham hayajonli lavhalar chizadi. Shunday qilib, romanda kolxoz qurilishi, urush va Toshkent zilzilasi bilan bog'liq bo'lgan qariyb qirq yillik hayot qamrab olinadi. O'tkir Hoshimov mazkur asar sujeti va kompozitsiyasini ishlashda mumtoz adabiyot (masalan, Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni)da mavjud bo'lgan qoliplash san'atidan ijodiy foydalangan. Roman voqeasi Robiya, Qora amma, Kimsan Husanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra'no, Umar zakunchi, Olimjon Komilov singari turli xarakter va turli toifadagi to'qqiz obraz tilidan hikoyalar tizmasi shaklida berilgan. Bu hikoyalar mazmunan o'zaro mahkam bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun, tugal, original va jozibador sujetini hosil qiladi.

Romanda Ra'no va Umar zakunchi obrazlari ham muhim o'rin tutadi. Ra'no obrazida frontga ketgan eri Shomurodga vafosizlik qilib, yo'ldan adashgan suluv kelinchakning og'ir qismati, pushaymoni va fojiasi g'oyat ta'sirli qilib ochib berilgan. Umar zakunchi obrazida esa urush davrida kolxozda o'zi xon, ko'lankasi sulton

bo'lgan ba'zi raislarning nopok ishlari mohirona fosh etilgan.

«Ikki eshik orasi» romanidagi asosiy obrazlarga emas, balki Rashid abzi, Bashor opa, Oysara, Samadov singari epizodlik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Chunki asarda sun'iylik yo'q. Aksincha, ishontirish sarfati kuchli. Adib qaltis, murakkab masalalarni ham favqulodda topqirlik bilan ishonarli qilib tasvirlaydi. Qora ammaning o'z o'g'li Kimsanning sevgilisi Robiyani Shomurodga to'y qilib uzatishi, Orif oqsoqolning yoshlik qilib yo'ldan ozgan kelinini birovga nikohlashi, qismatlari chalkashib ketgan Muzaffar va Munavvar sevgisi tasvirlangan sahifalarda bu hol, ayniqsa, ochiq ko'rinadi. Romanda har bir voqea, har bir tafsilot puxta asoslanib, chuqur tasvirlangan. SHu tufayli ham roman 1986 yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

SHuningdek, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanida XX asrning 80-yillaridagi hayot ustalik bilan aks ettirilgan. Asarda oshkoralik va tanqidiy ruh kuchli. Yozuvchi o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini, kishilar ongi va ruhiyatida tarkib topgan insoniylik, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik singari xislatlarni ulug'lash bilan birga adolatsizlik, mansabparastlik, nopoklik, diyonatsizlik kabi illatlarni ochib tashlagan.

Roman voqealari qisman Afg'onistonda va asosan, O'zbekistonda bo'lib o'tadi. Asarning bosh qahramoni Rustam — Afg'onistonda «o'z burchini» bajarib, nogiron bo'lib kelgan, vijdonli, pok yigit. U o'z yurtiga qaytib kelgach, adolat va haqqoniyat uchun imkon boricha kurashadi. Biroq adolat topolmay, oxir-oqibatda o'z-o'zini o'ldirishga majbur bo'ladi. Rustam — hayotiy va jonli obraz.

«Tushda kechgan umrlar» romanida «o'zbek ishi», «paxta ishi» voqealari mahorat bilan tasvirlangan. Asarda Moskvadan o'zbekistonga «adolat o'rnatamiz» deb kelgan desantchi-tergovchilar zulmidan azob chekkan sof vijdonli, halol o'zbek dehqonlari obrazi yaratilgan. Rustamning otasi beayb «aybdor» Shomansur Shomatov obrazi buning jonli dalilidir. Xullas, «Tushda kechgan umrlar» romani 90- yillar o'zbek adabiyotidagi jiddiy voqea bo'ldi.

O‘tkir Hoshimov hikoya janrida ham unumli ijod qildi. Xususan, uning “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Urushning so‘nggi qurboni”, “O‘zbek ishi” kabi asarlari o‘zbek hikoyachiligi rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Uning “Qalbning oppoq daftari”, “Muqaddas qasamni buzganlar”, “Avlodlarga nima deymiz”, “Mantiq qani?”, “Davlat siri” kabi maqolalari so‘nggi yillar o‘zbek publitsistikasining yutuqlaridan biri bo‘ldi.

O‘tkir Hoshimov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va publitsistgina emas, dramaturg sifatida ham zamonaviy adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Uning “Hazon bo‘lgan bahor”, “To‘ylar muborak”, “Vijdon dorisi”, “Inson sadoqati”, “Qatag‘on” kabi drama va komediyalari respublika teatrlari sahnalarida qo‘yilgan. 1998 yil adibning “Osmondan tushgan pul” nomli hajviy hikoyalar to‘plami chop etildi.

O‘tkir Hoshimov tarjimon sifatida O.Berggols, Mustay Karim, V.SHukshin asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

O‘tkir Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991 yili “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni berilgan. U “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan ham taqdirlangan.

1.2. “Dunyoning ishlari” qissasining mavzu va g‘oyasi.

O‘tkir Hoshimov ijodida “Dunyoning ishlari” qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi eng yuqori nuqtasi bo‘ldi. Zero, mazkur qissa nafaqat o‘zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslari, shu jumladan xorijlik badiiy so‘z muxlislari qalbini ham zabt etdi. Qissani iste’dodli adib Said Ahmad “Ijod va jasorat” maqolasida haqli ravishda shunday e’tirof etdi: “Ayniqsa, “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. SHu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi”¹. Darhaqiqat, yozuvchi ta’kidlaganidek, qissa qo‘shiqdek o‘qiladi. Unda qandaydir musiqiy ohanglar bor. Bu musiqiylik uning lirik ifodasida yaqqol ko‘rinadi. SHuningdek, qissadagi mustaqil kichik hikoyalardan tashkil topgan har bir maishiy voqea qalblarimizni titratib, odamiylik haqida, insoniylik haqida saboq beradi.

Adabiyotshunos A.Rasulov esa “Ardoqli adib” adabiy portretida shunday deydi: “Dunyoning ishlari” poetikasini alohida sinchkovlik bilan o‘rganish zarur. SHu asarda yozuvchi mahorati, topqirligi, qissa janri tabiatiga kiritgan yangiligi, eng kichik personaj mohiyatini ham bir turtki, bir imo, sal-pal harakat bilan ochib yuborganligi aniq ko‘rinadi. Bir qarasangiz, “Dunyoning ishlari” sentimental asarday tuyuladi. Aslida, unda his-tuyg‘u serob-u, ammo zinhor sentimental asar emas”². Qissaning badiiy kompozitsiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asar adibning shaxsan o‘zi kirish so‘zida ta’kidlaganidek, hajm jihatdan xilma-xil, katta, kichik, o‘rtacha shakldagi mustaqil jami 33 hikoyadan tashkil topgan. Adib asarga yozgan muqaddimasida shunday deydi: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun aziz odam – onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba’zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu

¹ Said A. Ijod va jasorat. / Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar. 1-jild. –Toshkent: SHarq, 2009. – B. 10.

² Rasulov A. Ardoqli adib. –Toshkent: SHarq, 2001. – B. 87.

odamlarning qismati ham qaysidir jihatidan onamga bog‘langan”¹. Demak, bu qissa yaratilish uslubi jihatidan Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Nazir Safarovning “Navro‘z” avtobiografik xarakterdagi asarlariga o‘xshab ketadi. Qissada adibning onasi Poshsho xola obrazi asosiy o‘ringa ega. Poshsha xola obrazi atrofida chamasi 20 ga yaqin onalar obrazi bog‘lanadi. Lekin barcha voqealar va onalar siymosi Poshsha xola obrazi bilan bir nuqtada kesishadi. Asarda o‘zbekona milliy ruh ustuvorlik qiladi. Qissaning boshidan-oxirigacha “dunyoning ishlari shu ekan-da...” degan mantiqiy mulohazalar bilan yakunlanuvchi hayotiy falsafaga urg‘u beriladi. Poshsha xola oddiy bir farrosh ayol, to‘rtta-beshta bolani oq yuvib, oq tarab o‘stirgan mushfiq, munisa bir o‘zbek ayoli. Uning xatti-harakatlari, gapirgan gaplari, qiliqlari, er bilan, farzandi bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarida uning soddadil, pokiza qalbi, halol, mehnatkash, birovning dardiga dardkash qiyofasi hikoyadan hikoyaga o‘tgan sari ochila boradi. “Ona” deyilganda, dunyodagi eng yaxshi insoniy xislatlar xayolimizga keladi, dilimizdan tilimizga ko‘chadi. Mazkur tuyg‘u-hissiyot Poshsho xola timsolida yorqin aks ettirilgan. Ammo shu bilan birga qissada turli ijtimoiy, yoki, maishiy-hayotiy ziddiyatlar jarayonida eriga xiyonat etgan, farzandidan voz kechib, sevgilisi bilan qo‘ltiqdashib ketgan, “ona” degan muqaddas nomga teskari ish qilgan onalar obrazi ham qissada yaratilgan. Ammo xilma-xil xarakterli, turfa taqdir va hayotiy a‘mollar va o‘z fe‘l-xuyiga ega onalarning barchasi zanjir misoli birlashib “Ona” obrazi atrofida jipslashadi. Qissada eng e‘tiborli ona obrazi, shubhasiz Poshsho xola sanaladi. Ammo shu qatorda mehnatsevarlik, mushtiparlik, sadoqat, halollik, rostgo‘ylik borasida asarda ideal obraz sifatida namuna ko‘rsata oladigan onalar timsollari anchagina. Jumladan, mana shunday obrazlardan biri Zebi xoladir, uning mungli qismati “O‘ris bolaning oyisi” hikoyasida bayon etiladi. Muallif Zebi xola haqidagi xotiralarini bolalik davridagi tasavvurlari bilan bog‘lab, bo‘yab-bejamasdan real hayotda ko‘rgan, guvohi bo‘lgan voqealarni hikoya etadi. Bu ayol ikkinchi jahon urushi yillarida yoridan ayrilib, yosh beva bo‘lib qolgan, shuning uchun yarim qalbini farzand mehri bilan to‘ldirmoq uchun bir rus etim bolani asrab olib, o‘zi tuqqandek

¹ Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent: SHarq, 2009. – B. 5.

tarbiyalaydi, voyaga etkazadi. SHuning uchun hamma Zebi xolani “O‘ris bolaning oyisi” deydi. Zebi xola tashqi jihatdan erkaklarga o‘xshab barvasta gavdali, qop-qora, hatto ovozi ham yo‘g‘on, uzun qirra burun, hatto qoramtir siyrak mo‘ylovi bor. Muallifning bolalik xotiralarida Zebi xola biroz dag‘al, qo‘pol, erkakshoda bir ayol sifatida tasvirlanadi. Ammo shunday barvasta ayolning ham dardi, iztirobi bor ekan. U yoridan ayrilib, ayollar yig‘inida dutor chalib, qo‘shiq kuylaganida nafaqat kattalar, hatto kichik yoshdagi bolalar ham sergak tortishadi. Bunday badiiy lavhalarda adib lirik hissiyot bilan epik ko‘lamni nihoyatda uyg‘un bir tarzda payvandlab aks ettiradi: “Zebi xola bir-ikki tomoq qirib oldi-da, qo‘shiq boshladi. Uning tovushi mayinlashgani yo‘q. Ammo u shunchalik bosiq, shunchalik o‘rtanib kuylardiki, badanim jimirlab ketdi.

YOr yurgan ko‘chalarni supuray sochim bilan,

CHangi chiqsa suv sepay, ko‘zdagi yoshim bilan...

Mayin shamol esar, o‘rik gullari unsiz to‘kilar, daraxtzor ostida maysalar ohista tebranar, ammo butun tabiat bir zum unsiz bo‘lib qolgan, hamma-hammasi faqat mana shu qo‘shiqni tinglash uchun tinchib qolgandek edi”¹. Parchada kuzatganimizdek, dag‘alroq tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgani bilan qalbi nozik, tuyg‘ulari, hislari inja, pokiza bir ayol obrazi, ona qiyofasi maishiy lavhalar tasvirida ochiladi. YUqoridagi badiiy tasvirda Zebi xolaning yorga sadoqat haqidagi qo‘shig‘iga monand tabiat chizgilari ham lirik hissiyot bilan aks ettiriladi. Qahramon ruhiyati bilan peyzaj tasviri nihoyatda bir-biriga uyqash tasvirlanadi.

Qissadagi yana bir e‘tiborli hikoyalardan biri “Ermon buvaning tilagi”dir. Ermon buva va uning kampiri Habiba buvi nihoyatda yumshoqtabiat, muloyim, samimiy, pokiza insonlar. Ular ham Zebi xola singari urush yillarida yakkayu yagona o‘g‘li Oltmishvoydan ayrilib qolishgan. Ermon buva bilan Habiba buvining bolalarga murojaatida, gap-so‘zlaridan tortib, ular yashaydigan pastak devorli uy, hovlisidagi o‘sgan saxovatli tuti barcha-barchasi juda tabiiy tasvirlanadiki, ko‘z oldingizda real va jonli qishloq hayoti gavdalanadi. Ayniqsa, qarg‘ishni ham ezgu tilaklar bilan

¹ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, SHarq, 2009. – B. 138.

bildiradigan keksa nuroniy chol-kampirning gap-soʻzlari juda mahorat bilan qissada ifodalangan: “Kirib borishingiz bilan doka roʻmolini u yoqqa, bu yoqqa tashlagan Habiba buvi peshvoz chiqadi.

- Voy uyingga bugʻdoy toʻlgurlar, voy koʻpaygurlar, kela qolinglar, - deydi ovozi tovlanib. Oʻsha zahoti bolalar tutga tarmashadi. Tut ham egasiga oʻxshagan. Hovlining yarmini egallab yotadi-yu, ammo tik oʻsganmas. SHoxlari tarvaqaylab ketgan. Bemalol osilib chiqaverasiz. SHundoq boʻlsayam, Habiba buvi bolalarni tutga chiqarmaydi.

-Hoy koʻpaygur, osilma! – deydi chirqillab. - Yiqilib ketasan. Hozir buvangni chaqiraman!

Zum oʻtmay ayvon yonboshidagi pastak hujradan hassasiga tayanib Ermon buva chiqadi-yu:

-Ie, ie, qoravoylar, kep qobsizlar-da! – deydi quvonib. – Qani kampir, chodirni opchiq”¹. Ermon buva bilan Habiba buvi ruhan bir-biriga mos, hayotda ham bir-biriga suyanib qolishgan. Ularning gap-soʻzlari ham oʻxshab ketadi. Zinhor yomon qargʻishlarni tilga olishmaydi. Ularning tilidan nuqul “uyingga bugʻdoy toʻlgurlar”, “oʻzingdan koʻpaygurlar” degan samimiy, oʻzbekona, ezgu tilakli gaplar chiqadi. Ermon buva esa muallif oʻzi eʼtirof etganidek, har bir gapida bolalarni “qoravoylar” deb erkalaydi. Adib Ermon va Habiba chol-kampirlar obrazini yaratar ekan, ularda oʻzbekona, nuroniy keksalar timsoli naqadar mahorat bilan aks ettirilganini kuzatamiz. Toʻgʻri, hikoyada urgʻu asosan Ermon buvaga qaratiladi. Ermon buva ham farzand, ham suyanchigʻi turmush oʻrtogʻidan ayrilib qolgach, bu ruhiy iztirobga dosh bera olmay telba boʻlib qoladi. Adib hikoyada bir oilaning fojeasiga, baxtsizligiga “Urush” sababchi degan badiiy gʻoyani ilgari suradi. Habiba buvi obrazi, uning oʻzbekona onalik qiyofasi “Dunyoning ishlari” qissasida kichik bir chizgilar bilan, ozgina badiiy turtkilar bilan ochilgan boʻlsa, mazkur obrazning keng badiiy ifodasi Oʻtkir Hoshimovning navbatdagi hikoyasi “Oʻzbeklar”da yorqin ifoda topgan.

“Dunyoning ishlari” qissasida muallif «men»i – xotiralar davomiyligi quyidagi

¹ Hoshimov Oʻ. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. - Toshkent: SHarq, 2009. – B. 55.

vazifalarni bajaradi: birinchidan, nogahoniy tarzda paydo bo‘ladigan kechinma mushohada erkinligi – kengligini ta’minlaydi. Ikkinchidan, esdaliklar obraz mohiyati – ona qiyofasini yorqinroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. Uchinchidan, hikoyachi «men»i–ruhiy munosabati–ijodkor fitratini uyg‘unlashtirishga yordam beradi. To‘rtinchidan, xotira shirin tuyg‘ular hamda achchiq iztiroblar kolliziyasini ixcham tarzda berish vositasidir. SHuningdek, xotiralar bayoni hikoyada lirik ifoda yo‘sinini yanada kuchaytiadi.

«Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo‘lib uxlab qolardim. O‘sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo‘ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana...Yo‘q, yo‘q, yig‘laganim yo‘q. Hozir, hozir o‘tib ketadi».¹

Parchada lirik hissiyot ko‘lami ikki taraflama hayot haqiqati – o‘zaro dialektik aloqadorlik qonuniyati hamda xarakter ruhiyati teranligini shakllantiradi. Binobarin, ona va lirik «men» orasidagi munosabat inson tiynati mukammalligini belgilab beradi.

«Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim... Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni ko‘zingizga surtib, «omonliq-somonliq» qilardingiz...

Bugun... o‘zingizning ustingizdan boychechak o‘sib chiqibdi... Yo‘q, yo‘q, oyijon... yig‘layotganim yo‘q. Bilaman, men yig‘lasam, siz bezovta bo‘lasiz. Hozir... hozir o‘tib ketadi. Mana, bo‘ldi...»².

Muallifning mahorati shundaki, u lirik kechinma va epik ko‘lam mushtarakligi tabiatiga ham ma’naviy-axloqiy masalalar echimi, ham inson psixologiyasi teranligini singdira oladi. Turmush tafsilotlari, hayotiy-maishiy detallar, hissiyot quyuqligi adib shakliy izlanishlarini g‘oyaviy mazmun bilan boyitadi. “Dunyoning ishlari” qissasi muallifning onasi vafoti bilan boshlanib uni qabrga qo‘yish bilan yakunlanadi.

Jumladan, «Qarz» novellasida ona xakteri sahna ortida tasvirlansa-da oddiy dialog yordamida qahramon siyratining bir qirrasi ochiladi. Oddiy hazildan

¹ Hoshimov O‘. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild. Nurli dunyo. –Toshkent: SHarq, 1993. – B. 177.

² O‘sha asar. – B. 177.

boshlangan savol-javob Poshsha xola tiynatida mujassam mehr-oqibat, bolajonlik xislatlarini boʻrttirib yuboradi. Lavha adogʻida ayol tilga olgan qarzning mohiyati oydinlashadi. Voqealar tizimining leytmotivi «bir farzandga etti mahalla ota-ona» tezisiga hamohangdir. «Qanoat» hikoyasida esa muallif oʻzgacha usul qoʻllaydi. Unga muvofiq ikki ayol tabiatida zohir kolliziya – qiyosiy-analitik tahlil qahramon ruhiyatini qabariq holda namoyon etadigan vositaga aylanadi. Agar Poshsha xola oʻz oilasining yoʻgʻini yashirib, borini oshirib koʻrsatadigan beka timsolida gavdalansa, Kelinoyi shartaki, shallaqi, kaltafahm oʻzbek ayoli sajiyasini ifodalaydi. Qoʻshni ayol feʼl-atvoridagi illatlar orqali ona qiyofasidagi xislatlardan yana biri oʻzbekona andisha, sabr-toqat hamda qanoatni urgʻulaydi. Kelinoyi tilidagi iboralar (ajalning tigʻi parroniga uchragur; qoʻlginang sinib, akashak boʻlgur; onamni soʻkkan tillaring tanglayingga yopishgur; qirchiningdan qiyilgur) uning ichki dunyosini yanada toʻlaroq aks ettiradi.

Oʻ.Hoshimov qalamiga mansub asarlarda lirik taʼkid turli xil usullar vositasida voqelik bayonini toʻldirib turadigan mohiyatga aylanadi. Xususan, hissiyot koʻlami kitobxonni hayajonda tutib turadigan estetik pafos darajasiga koʻtariladi. SHuningdek, liro-romantik talqin badiiy butunlikni taʼminlaydigan xarakterli xususiyatdir. Mazkur holat, ayniqsa, «Dunyoning ishlari»da toʻlaroq namoyon boʻladi. Jumladan, «Alla» hikoyasida odamzod hayoti – ibtidosi va intihosi haqidagi falsafiy mulohazalar qarama-qarshi tasvirlarda bayon etiladi. Aynan obʼekt sifatida qabristonning tanlanishi, tilovat sadosi va ona allasi oʻzaro ziddiyatining markaziy planga chiqishi ijodiy mantiq taqozosidir. Novellada tuygʻu shiddati hamda xotiralar oqimi bir-biriga bogʻlanib ketadi. Alla tasviriga yoʻnaltirilgan lavhada muallif millatga xos badiiy-estetik gʻoyani falsafiy umumlashma chiqarishga safarbar etadi. Unga koʻra hayot va oʻlim, ezgulik va razolat singari falsafiy kategoriyalar millat qobigʻiga sigʻmaydi, balki umuminsoniy miqyoslarni aks ettiradi. Toʻgʻrirogʻi, adib kichik psixologik manzarada onaning farzandga muhabbati oldida oʻlim ham chekinadi, degan aqidani ilgari suradi: «...dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi goʻdak bermalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, goʻdak tushungan

narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

Bilmadim... Qabrison darvozasi oldida, bir tomonda tilovat, bir tomonda alla yangrayotgan darvoza oldida turib shularni o‘yladimu g‘alati bo‘lib ketdim»¹.

SHu tariqa nosir epik tarqoqlikdan lirik ibtidoaga o‘tganini sezdirmaydi. YOzuvchi ona va uning axloqiy sifatlarini ifoda etarkan unga parallel ravishda turmush to‘g‘risida o‘z falsafasini taqdim etadi. Ayni paytda estetik kategoriyalar (go‘zallik va xunuklik, hayot va o‘lim va h.k.) bir-birini taqozo etadigan tushunchalardir.

O‘tkir Hoshimov «Dunyoning ishlari» qissasida Sepkilli xola, Zebi xola, Bashorat xola, Acha xola, Amma, Risolat opa, Habiba buvi, Hoji buvi singari obrazlarga murojaat qiladi va ularni estetik markaz – ona siymosi atrofiga jamlaydi. E’tiborli jihati muallif ayollarning turfa yosh – mantiqiy uzviylikda tasvirlanishi, kasb-hunar nuqtai nazaridan rang-barangligi o‘zbekona turmush tarzini to‘laroq tasvirlash imkonini beradi. Har bir qahramon o‘zida aks ettirgan «g‘oyaviy yuk»ni badiiy chizgilar bilan to‘ldira boradi. SHu tariqa Poshsha ona xarakteri qirralari birma-bir ochila boshlaydi.

Birgina «Oltin baldoq» hikoyasida onaga xos fazilatlar bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. U oddiy va sodda hayotni sevadi, manfaat hamda g‘arazdan yuqori turadi. Bu xususiyatlarni o‘z farzandlariga ham singdirishga urinadi. Garchand, aybi bo‘lmasa-da, Sepkilli xolani tuhmatga qo‘yganidan ich-ichidan iztirob chekadi. Poshsho onadagi bag‘rikenglik Sepkilli xolanikida to‘y o‘tkazilgan kechada yanada yorqinroq ifodalanadi. Qo‘shnisining dilini og‘ritganligi uchun o‘z boyligi - tilla baldoqlardan ham voz kechadi. Ayoldagi xislatlar farzandlar uchun ham ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Asarning «Oq marmar, qora marmar» novellasi falsafiy umumlashmalarning yakuniy qismidek taassurot uyg‘otadi. Negaki, butun mustaqil lavhalar qatiga singdirilgan g‘oyaviy chiziqlar novellada o‘z maromiga

¹ Hoshimov O‘. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild. Nurli dunyo. – Toshkent: SHarq, 1993. – B.176.

etadi. Qabristondagi ruhoniylar manzaralar azal va abad, inson va uning asl mohiyati, insof va diyonat tuyg'ularini uyg'otadi, kitobxonni bir zum bo'lsa-da, xayolot olamiga etaklaydi. Jumladagi og'ir, mahzun hissiyot lirizmning eng yuksak namunasi hisoblanadi. Muallif tuyg'ular silsilasi ko'lamini belgilashda ham tabiiylik va samimiyatdan chekinmaydi. Ayniqsa, adibning mahorati badiiy chizgilarga aralashgan holda o'z xolislik mavqeiini saqlab qolganligida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

II bob. “Dunyoning ishlari” qissasini o‘rganishda yangi ped texnologiyalardan foydalanish

2.1. “Gilam paypoq”, “Alla” va “Haqqush” boblarini o‘rganishda innavatsion usullardan foydalanish

O‘tkir Hoshimov ijodi va uning “Dunyoning ishlari” qissasiga o‘rta ta’lim maktabining 5-sinfida ajratilgan 4 soatlik dars mashg‘ulotining 1-soati adib hayoti va ijodi haqida ma’lumot berishga bag‘ishlanadi. 2-soatda “Dunyoning ishlari” qissasi haqida ma’lumot. “Gilam paypoq” hikoyasi tahlili beriladi. 3-soatda “Alla”, “Haqqush”, “Qarz” , “Iltijo” hikoyalarini tahlil qilinsa, 4- soatda qissaga kiruvchi hikoyalar yuzasidan yalpi suhbat tashkil qilish mumkin.

“Dunyoning ishlari” qissasi nafaqat adib ijodi, balki 80-yillar o‘zbek nasrida munosib o‘rin egallagan yirik asar. Asar avtobiografik xarakterga ega. Yozuvchi hayotida yuz bergan qiziqarli, o‘zi muhim deb bilgan voqealarni qalamga olgan. Qissada yozuvchining validasi Hakima aya bosh qahramon sifatida namoyon bo‘ladi.

Asardagi hikoyalar turli voqealar bayoniga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, ularda ona – Hakima aya obrazi tutashtiruvchi ip bo‘lib o‘tadi, voqealar rivoji bevosita yoki bilvosita tarzda ona taqdiriga borib taqaladi. Yozuvchining o‘zi ham bu fikrni tasdiqlaydi: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam onam siymosi bor.... Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog‘langan¹”.

Asarning e’tiborli tomoni va yozuvchining mahorati shundaki, undagi ona bir yozuvchining taqdiriga taalluqli shaxs emas, balki umumbashariy shaxs darajasiga ko‘tarilgan. Adibning o‘zi e’tirof etganidek: “... qissa faqat o‘z onam haqida emas, umuman, o‘zbek ayoli haqida, va umuman, Onalar to‘g‘risida²”. Qissa 80-yillarda qanday qo‘lma-qo‘l o‘qilgan bo‘lsa, hozir ham bu asarga kitobxonlar qiziqishi so‘ngani yo‘q.

Qissada “Oq, oydin kechalar”, “Tasalli”, “Tush”, Haqqush, “Qarz”, “Ikki

¹ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, SHarq, 2009. – B. 5.

² O‘sha asar.-B.5.

afsona”, “Gilam paypoq”, “Eng og‘ir gunoh”, “Bola yig‘isi”, “Xiyonat”, “Qanot”, “Opamni topib oldim”, “Oltin baldoq”, “O‘ris bolaning oyisi” kabi yigirmadan ortiq katta-kichik hikoyalar jamlangan. Bu hikoyalar kitobxonni befarq qoldirmaydi, ularda farzandi uchun har qanday mashaqqatga, jon fido qilishga tayyor, sharqona odob-axloq qoidalarini o‘zida mujammas qilgan na madh etiladi. Asar ortiqcha maishiy tafsilotlar, jimjimadorliklardan xoli. SHu tufayli ham katta qiziqish va hayajon bilan o‘qiladi. Bu qissa, mohir yozuvchi, O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmad ta’kidlaganidek, “...dostondek o‘qiladi. Uni o‘qib o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz..”. Qissadagi hikoyalar mazmuni yuqorida ta’kidlaganimizdek, ona obraziga tutashligidan tashqari har hikoyada ijtimoiy, axloqiy, tarbiyaviy muammo qo‘yiladi va hal etiladi, shu tariqa ona obrazi rang-barang bo‘yoqlarda o‘zining turli sifatlari bilan namoyon bo‘ladi.

“Gilam paypoq” hikoyasi ushbu qissadagi eng ta’sirchan asarlardan biridir. Hikoya kichik, biroq mazmuni, tarbiyaviy kuchi ulkan asar. Unda ona o‘z jigarbandini kasallik xavfidan tezroq xalos qilish, qutqazish uchun har narsaga, hatto jonini berishga tayyor. Hikoya mazmunidan ma’lumki, ona qattiq shamollab qolgan o‘g‘ilchasini shosha-pisha “Voy endi nima qilaman! Voy, bolam o‘lib qoladi¹!” degan tahlika bilan halloslagancha tabib ayol – Hoji buvining uyiga yuguradi. Bolasi darddan biroz engil tortgach, ona o‘z sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘ygani ma’lum bo‘ladi. Asarda bu holat g‘oyat ta’sirli tasvir etilgan: “...Hoji buvi allaqandan taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu, birdan xitob qildi:

- Voy poshsha-a-a! Nima qilib qo‘ydingiz, tamom bo‘psiz-ku!
- Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.
- Oyog‘ingizdan ayrilibsiz-ku!-dedi Hoji buvi boshini chayqab.-SHu axvolda qandoq keldingiz?
- Kavshandozda turgan oyimning kavushini endi ko‘rdim. Kalishning ichi qorga to‘lgan edi.
- Sarpoychan kelaverdingizmi?!- dedi Hoji buvi hamon o‘sha vahimali

¹ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, SHarq, 2009. – B. 17.

ohangda .-Endi nima qilasiz? Qargʻaning miyasini chaqib surmasangiz choʻloq bshlib qolasiz.

Oyim tanchadan oyogʻini chiqardi. Ikkala oyogʻi qip-qizil goʻsht boʻlib ketgan edi....¹”. Hikoya boshlanmasida muallif har yili dam olishga Kavkaz tomonlarga koʻp borishini va u erlardan onasiga gilam paypoq olib kelishini, onasi esa xuddi noyob narsaga ega boʻlgandek, qoʻni-qoʻshnilarga shunday mehribon oʻgʻli borligini aytib maqtashini taʼkidlaydi. Haqiqiy oʻzbek onasi timsoli “Gilam paypoq” hikoyasida juda mohirlik bilan, sodda va samimiy yaratilgan. Oʻqituvchi dars yakunlanayotganda onaning fidoyiligi, farzand uchun har qanday azobga tayyorligi nimalarda koʻrinishini oʻquvchilardan soʻraydi, ulardan qoniqarli javob olgach, kundalik hayotdan ham onalarning fidoyiligiga misollar izlashni taklif qiladi.

Asardagi “Alla” deb nomlangan hikoya ham nihoyatda taʼsirchanligi bilan kishini rom etadi. Alla inson bolasi hayotda tinglaydigan ilk qoʻshiq, u vujudimizga ona suti bilan singgan va umrbod unutilmasdir. YOzuvchi bu ezgu qoʻshiqni ilohiy kuchga ega boʻlgan, koʻngilni eritadigan ohang sifatida taʼriflaydi. Ushbu bobni hayajonsiz, entikmasdan oʻqish qiyin CHunki bu hikoya kishini yoqimli, ezgu tuygʻular tomon etaklaydi. Oʻqituvchi asarning umumbashariy xarakteri, barcha uchun tushunarli insoniy qoʻshiq ekanligini tushuntirish asnosida darslikdan hikoyaning bir parchasini oʻqib bersa, maqsadga muvofiq boʻladi: “Onam beshigim ustida alla aytganini eslay olmayman. Esimni taniganimda beshikda yotmaydigan boʻlgan edim. Biroq oyim ukamga alla aytganini eshitganman... Tashqarida boʻron guvillaydi. Quruq qorning derazaga chirsillab urilishi eshitilib turadi. Ukamning beshigi gʻirchillaydi. Onam alla aytadi.

Alla, bolam uxlay qol-a,alla,

Quhogʻimda orom ol, alla...

Yoʻq, bu qoʻshiq emas. Oyimning ovozida qandaydir boshqa narsa bor. Mungmi, iltijomi....

Togʻlardagi shunqorim-ey, alla,

¹ Hoshimov Oʻ. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, SHarq, 2009. – B.17.

Beshikdagi qo‘chqorim-ey, alla¹’.

Insonni ta’sirlantiradigan bu mungli alla zamirida qancha-qancha xotiralar, o‘y-xayollar, insonning beg‘ubor bolaligi-yu, butun hayot yo‘li mujassam. Qabristonga onasini ziyorat qilgani kelgan muallif bir tomonda tilovat sasini, bir tomonda esa alla tovushini eshitadi. Bittasi inson tug‘ilganda, go‘dakligida aytiladigan qo‘shiq bo‘lsa, ikkinchisi bu dunyodan o‘tgan insonlar xotirasiga o‘qiladigan tilovatdir. “Bir tomonda tilovat sasi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas, bir-birini rad etmas, ikkalasi qo‘shilib bahor nafasiga to‘lgan osmonda, qabriston yo‘lkasidagi kuchala chiqargan teraklar ustida parvoz qilar edi:

“Rabbano-o-o, rabbano-o-o...” “Allayo, alla...”²’.

Dunyoning barcha mamlakatlarida onalar turli allalar aytib go‘dagini ovutadilar, orom oldiradilar. Allani eshitgan har bir kimsaning xotirasida o‘z bolaligi, betashvish, beg‘am onlari, munis va mehribon onasi gavdalanadi. Muallif do‘stlari bilan olis tog‘ qishlog‘iga dam olishga boradi. Xorib-charchab, bir qirg‘iz o‘toviga borib tunaydilar. SHu erda bir qirg‘iz ayolining bolasi yig‘layotgani va ayol bolasini alla aytib ovutayotganini eshitadi. Bu jarayon asarda nihoyatda ta’sirli qilib tasvir etiladi: “Negadir yuragim shirin orziqib ketdi. Ayolning ovozi, alla ohangimi, xuddi onamga o‘xshab ketardi. Negadir shu ohang bilan qalbinga orom kirganday bo‘ldi-yu, o‘z-o‘zidan ko‘zlarim yumilib keta boshladi. Go‘yo qirg‘iz ayol bolasiga emas, menga alla aytayotganday... YAqin orada bunaqa shirin uxlamagan edim”. Oradan yillar o‘tib, muallif Kislovodskka dam olishga boradi. SHu erda bir sibirlik ayol xonadonida osh qilib eyishadi. Bu joyda ham yana o‘sha ilohiy qo‘shiqqa duch keladi: “...Keyin sibirlik juvon kichkintoyini ko‘tarib uyga kirib ketdi. Oradan chorak soatcha o‘tgach, ichkaridan uning ovozi keldi:

Bayu ba-yushki, bayu, bayu-bay...

Qiziq, yuragimla yana o‘sha shirin orziqish uyg‘ondi. Uning ovozi ham onamnikiga o‘xshab ketardi.... Bu qanday holat! Bu qanday sehr? Nima o‘zi bu?.... Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni

¹Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, SHarq, 2009. – B.185.

² O‘sha asar.B.185.

dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go‘dak tushungan narsaga biz tiushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir¹”. Darhaqiqat, muallif to‘g‘ri xulosaga kelgan, ona – mo‘‘jiza, ona – buyuk ixtiro. “Alla” hikoyasida yozuvchi ushbu ezgu qo‘shiqni ilohiy bir kuchga ega bo‘lgan, ko‘ngilni eritadigan ohang sifatida tasvirlaydi.

Qissadagi “Haqqush” hikoyasi mazmunan teran asar. Hikoyada muallif do‘stlari bilan tog‘ sayriga chiqadi. Go‘zal tabiat manzarasi, ulkan qoyalar haybati unda turli xislar uyg‘otadi. Tog‘dagi tungi manzara, teraklarning shitirlashi, daryoning shovullashi, ayniqsa, qushning “Haq-qu, haq-qu” degan mungli nidosi yozuvchini sergak torttiradi. Va yodiga onasi go‘dakligida aytib bergan aka-ukalar haqidagi cho‘pchak tushadi: Unda Ilhaq va Ishoq ismli aka-ukalarning janjallashaverib, onalarini adoyi tamom qilganlari, ularning bu qilg‘idan qahri kelgan Olloh ikkalasining ham ko‘zini ko‘r qilib qushga aylantirib qo‘ygani, ikki aka-uka ana shundan keyingina, bir-birlariga kerak ekanlari, bir-birlarini ko‘rmasalar turolmasliklarini anglab etganlari qayg‘uli tarzda hikoya qilinadi. Biroq endi kech bo‘lgan edi. O‘shandan beri ular bir-birlarini chaqirishar, ammo topolmas emishlar.

Hikoyada aka-ukalar taqdiri misolida axil bo‘lishga da‘vat noziklik bilan aytilgan. Endi o‘qituvchi bolalar e‘tiborini ushbu hikoyadan kutilgan ikkinchi bir maqsadga qaratishi lozim bo‘ladi. Ona bu mudhish afsonani hikoya qilar ekan, uning zamirida onaning, umuman, ota-onalarning orzusi, qalb xohishi – o‘z farzandlarining ahil, kelishib yashash haqidagi istagi yotibdi. E‘tibor bersak, ko‘pchilik hikoyalardagi ona tomonidan aytilgan cho‘pchak, afsonalar (“Oq, oydin kechalar”, “Ikki afsona”) muayyan tarbiyaviy maqsadni ko‘zlab aytilgan. “Haqqush” hikoyasidagi asosiy maqsad asar qahramonining quyidagi so‘zlarida yaqqol ifodalangan: “Bechora onam! O‘sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo‘ralagan qaldirg‘och bolasidek

¹ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, SHarq, 2009. – B.187.

ko‘rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo‘lishini shunchalik xohlaganmiding!¹”.

O‘qituvchi hikoyaning asosiy mazmunini tushuntirar ekan, undan chiqariladigan xulosa o‘zaro axil bo‘lish, aks holda nizo-janjali, noahillik yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini uqtiradi. SHuningdek, asar so‘nggidagi onalar qismati haqidagi muallif so‘zlarini sharhlash ham tarbiyaviy foydadan xoli emas: “... Onalar farzandlari hamisha birga bo‘lishini istaydilar. Qismat esa, ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi²”. Darhaqiqat, har bir oilada farzandlar voyaga etgach, o‘zlari ham oila quradilar, tanlagan sohalarida ishlaydilar, demakki, ular taqdiri turlicha kechishi mumkin. Bizningcha, bundan fojia izlash yaramaydi. Biroq ota-ona qalbi o‘z jigargo‘shalarini ko‘z o‘ngida bo‘lishini istaydi. Afsuski, bandasi tadbir qilsa, Yaratgan taqdir qiladi, deydi xalqimiz. “Haqqush” hikoyasida ana shunday nozik tuyg‘ular qalamga olinadi.

¹Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, SHarq, 2009. – B.11.

²O‘sha asar.-B.11.

2.2. “Qarz” va “Iltijo” boblarini o‘rganishda noan’anaviy metodlarning ahamiyati

“Dunyoning ishlari” qissasiga kirgan hikoyalarni o‘rganganda bir qancha noan’anaviy metodlarni qo‘llash mumkin. Quyida ana shu usullardan ba’zilari haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz:

“Qarorlar shajarasi” metodi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

BURCHAKLAR USULI. Muhokama etilayotgan muammo bo‘yicha o‘zining nuqtai-nazarini bildirish imkoniyati beriladi. Ishtirokchilar ikki-uch guruhga bo‘linadilar va dars mavzusi bo‘yicha bahs yuritib, ishtirokchilar orasidan, agar kimdir o‘z fikrini o‘zgartirsa, guruhni almashtirishiga ruxsat beriladi.

“AQLIY HUJUM” METODI. Mazkur metod o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi – bu rivojlantiruvchi o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, faol bilim orttirish jarayonini rag‘batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketma-ketlik stilini shakllantiradi. Bu texnologiya oliy maktabda eng samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi. Muammoli o‘qitish mohiyati o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘qishida muammoli vaziyatlarni tashkil etish va o‘quv (yaxshisi, hayotiy) masalalar, muammolar va savollarni yechish yo‘li bilan yangi bilimlarni o‘zlashtirish faoliyatini boshqarishdan iborat.

«Bumerang» texnologiyasi orqali dars jarayonida yoki turli adabiyotlardan, tarixiy manbalar, matnlar bilan mustaqil ishlash jarayonida o'quvchilarning o'rganilgan materialni yaxshi eslab qolish imkonini beradi, og'zaki nutqni rivojlantiradi va o'z fikrini erkin bayon eta olish malakalarini shakllantiradi, shuningdek, bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholash imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi. «Bumerang» texnologiyasidan yangi mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.«Bumerang» texnologiyasining texnologik tavsifi quyidagicha ekanligini ko'rsatish mumkin: da'vat, anglash, fikrlash hamda sharhlash bosqichlari.

Asardagi “Qarz” va “Iltijo” boblarini o'rganishda ana shu usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

“Qarz” hikoyasida qissaning bosh qahramoni Hakima ayaning insoniy fazilatlaridan yana biri qalamga olinadi. Hakima aya kamtargina nafaqasini ham qo'shnilarining farzandlari xursandchiligiga sarflaydi. O'tgan yili ularga tufli olib bergan bo'lsa, bu yil uch oyoqli velosiped, ko'ylak sovg'a qiladi. O'g'illariga esa “qarz oldim, qarzimni uzyapman”, deb bahona qiladi.

SHu o'rinda xalqimizning “bitta bolaga etti qo'shni ota-ona”degan ibratli fikri yodimizga tushadi. Darhaqiqat, bolajon xalqimizning qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larning farzandlariga ham o'z bolasidek qarashlari ma'lum. Qissa qahramoni – Ona qo'shnilarining farzandlarini ham o'z farzandidek ko'rib, ularning tug'ilgan kunlariga turli sovg'alar tuhfa qiladi va ulug'vor ezguliklar yaratadi.

Professor N.SHukurov yozadi: «O'.Hoshimov onasi haqidagi xotiralarini alohida-alohida hayotiy lavhalar tarzida hikoya qilib berar ekan, ularning xronologik tartibini saqlamaydi. Yo'q, u asosan, ko'nglida paydo bo'lgan farzandlik kechinmalari, tuyg'ulari, fikrlari bilan xotirasiga kelgan lavhalarni berib boraveradi. Ko'p novellalar muayyan bir o'y, tuyg'u, kechinma ifodasi bilan boshlanadi va yakunlanadi. O'rtada ona hayoti haqidagi lavhalar beriladi. Kechinma lavhaning, hikoyaning davomi sifatida ulanib ketadi va bir-birining

ta'sir kuchini oshiradi»¹.

Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to'laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko'zga tashlanadi. Jumladan, «Qarz» novellasida ona xarakteri sahna ortida tasvirlansa-da oddiy dialog yordamida qahramon siyratining bir qirradi ochiladi. Oddiy hazildan boshlangan savol-javob Poshsha xola tiynatida mujassam mehr-oqibat, bolajonlik xislatlarini bo'rttirib yuboradi. Lavha adog'ida ayol tilga olgan qarzning mohiyati oydinlashadi. Voqealar tizimining leytmotivi yuqorida ta'kidlanganidek, «bir farzandga etti mahalla ota-ona» tezisiga hamohangdir.

Ona, avvalo, yaratuvchanligi bilan ulug'lanadi, sharaflanadi. Zero, adibning o'zi "Ayol" nomli publitsistik maqolasida onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrai zaminga qiyoslab yozgan obrazli fikrlari bilan buni dalillaydi: "Ona mehrini to'sadigan chegara yo'q. Ehtimol allaning qudrati mana shundadir. Ehtimol ayolning qudrati mana shundadir. Ehtimol, ona yurt, ona tili, ona-Vatan degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Ehtimol, ona-yer degan ibora shundan kelib chiqqandir. SHuning uchun ham men yer kurrasini ayolga o'xshataman"². "Qarz" hikoyasida onaning ana shunday yuksak insonparvarlik, yaratuvchanlik qobiliyati ulug'lanadi.

Qissaning "Iltijo" deb nomlangan bobida insonning ona oldidagi farzandlik burchi hech qachon to'lab bo'lmas qarz ekani nihoyatda ta'sirchan ifodalanadi. CHunki onalarimizning hayotdagi o'rni beqiyosdir. Ular bizni dunyoga keltiradi, oq sut berib boqadi, uzoq tunlar beshigimizni tebratib, atrofimizda parvona bo'ladi, parvarishlab voyaga etkazadi. Buni teran idrok etgan yozuvchi onani qo'msash, uning beqiyos mehri oldidagi qarzdorlik tuyg'ularini g'oyat samimiy tasvirlay oladi.

«Esingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo'lib uxlab qolardim. O'sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab

¹ SHukurov N. Dunyoning ishlari // Guliston. –Toshkent, 1982. –№ 8. –B. 28.

² Xoshimov Y. Ayol. / Oq kamalak. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1984. – B. 122.

qo‘ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana...Yo‘q, yo‘q, yig‘laganim yo‘q. Hozir, hozir o‘tib ketadi».¹

Parchada lirik hissiyot ko‘lami ikki taraflama hayot haqiqati – o‘zaro dialektik aloqadorlik qonuniyati hamda xarakter ruhiyati teranligini shakllantiradi. Binobarin, ona va lirik «men» orasidagi munosabat inson tiynati mukammalligini belgilab beradi.

«Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim... Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni ko‘zingizga surtib, «omonliq-somonliq» qilardingiz...

Bugun... o‘zingizning ustingizdan boychechak o‘sib chiqibdi... Yo‘q, yo‘q, oyijon... yig‘layotganim yo‘q. Bilaman, men yig‘lasam, siz bezovta bo‘lasiz. Hozir... hozir o‘tib ketadi. Mana, bo‘ldi...»².

Bu misralarni to‘lqinlanmasdan o‘qish qiyin. “Dunyoning ishlari” qissasini o‘qiganda qalbimizni ikki xil iliq his chulg‘aydi – u ham bo‘lsa o‘z onamizga va umuman onalarga bo‘lgan mehr hissi. Haqiqatan ham, adibning o‘zi e’tirof etganidek, asar uning o‘z onasi haqida emas, “... umuman, o‘zbek ayoli haqida va umuman onalar to‘g‘risida”. Qissada bir-biridan mazmunli, qiziqarli hikoyalar ko‘p. Ana shu hikoyalardagi ibratli fikrlarni o‘quvchilar ongiga singdirish ularda ota-onaga bo‘lgan mehr-muhabbat, yuksak fanzandlik burchi kabi tuyg‘ularni shakllantirishga yanada yordam beradi. Qissadan olingan parchalar o‘qib tugatilgandan so‘ng, qissani to‘liq o‘qib chiqishni maslahat berish zarur. YAkunlovchi darsda qissadan olingan hikoyalar yuzasidan yalpi suhbat tashkil qilinadi. Suhbatda bir qancha metodlardan foydalangan maqsadga muvofiq keladi. Masalan, “Tushunchalar tahlili” metodi – bu metodda o‘quvchilar o‘zlari tushungan yangi ma’lumotlar ni tahlil qilib, bir-birlari bilan fikr almashadilar:

Tushunchalar tahlili

№	Tushuncha nomi	Tahlil
1	Qarz	

¹ Hoshimov O‘. Saylanma. 2 jildlik. 1-jild. Nurli dunyo. –Toshkent: SHarq, 1993. – B. 177.

² Ў.Хoshimov. Tanlangan asarlar. -Toshkent, SHarq. 2-jild – B. 177.

2	Haqqush	
3	Iltijo	
4	Alla	
5	Mehr	

O‘quvchilar “mehr”, “alla”, “haqqush”, “iltijo”, “qarz” kabi tushunchalarga ta’rif beradilar va shu so‘zlar mohiyatini chuqurroq anglaydilar.

Darhaqiqat, ona haqida kimlar nima demagan. Dunyoda biror bir shoir yoki adib bo‘lmasinki, ona haqida qo‘shiq to‘qimagan, kuylamagan bo‘lsa. Ona bor, olam bor; ona bor, odam bor; ona bor, Vatan bor, deyishadi: chindan ham ona kabi tabarruk va aziz, ona kabi muqaddas va mehridaryo, ona kabi mard va jasur, ona kabi xokisor va kechirimli inson olamda topilmasa kerak. SHundan bo‘lsa ajab emaski, ona mavzusi O‘tkir Hoshimov uchun navqiron, abadiy tugallanmas ilhom manbaidir.

XULOSA

O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimovdir. Adib asarlarida Ona obrazi shu qadar mustahkam va muhim o'rin tutadi, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. O'tkir Hoshimov mahoratining ko'pdan-ko'p qirralari ko'pincha bevosita, mana shu obrazning yaratilishi va yoritilishidagi muvaffaqiyat bilan tutashib ketadi. U yoki bu asardagi joziba, asar milliyligini belgilovchi fazilatlar nuri ham, mohiyatan ana shu obrazga alokador bo'lgan ziyodan o'sib chiqadi. Demak, O'tkir Hoshimov asarlaridagi Ona obrazini o'rganish adib mahoratini belgilovchi etakchi omillardan birini o'rganishdir.

O'rta umumta'lim maktablarining 5-sinfida adibning onalar haqidagi mangu qo'shiqqa qiyoslagudek go'zal asari – "Dunyoning ishlari" asari o'rganiladi. Qissa yaratilgan davrdan boshlab adabiyotshunoslar va munaqqidlar tomonidan juda iliq fikrlar aytiladi. Qissani iste'dodli adib Said Ahmad "Ijod va jasorat" maqolasida haqli ravishda: "Ayniqsa, "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz", deya e'tirof etgan edi. Darhaqiqat, yozuvchi ta'kidlaganidek, qissa qo'shiqdek o'qiladi. Unda qandaydir musiqiy ohanglar bor. Bu musiqiylik uning lirik ifodasida yaqqol ko'rinadi. SHuningdek, qissadagi mustaqil kichik hikoyalardan tashkil topgan har bir maishiy voqea qalblarimizni titratib, odamiylik haqida, insoniylik haqida saboq beradi. Adabiyotshunos A.Rasulov esa "Ardoqli adib" adabiy portretida: "Dunyoning ishlari" poetikasini alohida sinchkovlik bilan o'rganish zarur. SHu asarda yozuvchi mahorati, topqirligi, qissa janri tabiatiga kiritgan yangiligi, eng kichik personaj mohiyatini ham bir turtki, bir imo, sal-pal harakat bilan ochib yuborganligi aniq ko'rini"shini alohida e'tirof etadi. Darhaqiqat, qissa yozuvchining o'zi ham ta'kidlaganidek, dunyo onalari haqidagi asardir.

"Gilam paypoq", "Alla", "Haqqush", "Qarz", "Iltijo" hikoyalarida turli voqealar qalamga olinsa-da, ularda o'zbek oilalaridagi ona va farzand munosabatlari, bahri keng insonlar taqdiri, ularning ezgu amallari bo'rtib turadi. Asardagi hikoyalar

o‘quvchini hayajonga soladi, entiktiradi, ta’sirlantiradi. Zero, “Ona” deyilganda, dunyodagi eng yaxshi insoniy xislatlar xayolimizga keladi, dilimizdan tilimizga ko‘chadi. Ona siymosiga bo‘lgan samimiy tuyg‘ularni, mehr-muhabbatimizni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xullas, O‘zbekiston Xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi o‘quvchilarni eng buyuk zot – Onaga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etuvchi go‘zal asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
2. Karimov I.A. Vatan va xalq mangu qoladi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. –B. 136.
3. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – 560 b.
4. Boltaboev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 104 b.
5. Duysenbaev O. O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi. Fil.fan.nomz.diss.avtoreferati. -Toshkent, 2012, 26 b.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. (Birinchi kitob) Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 536 b.
7. Mirvaliev S. Iste’dodning qo‘sh qanoti. –Toshkent: YOzuvchi, 1993. –150 b.
8. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: SHarq, 2007. – 352 b.
9. Rasulov A. Ardoqli adib. Toshkent: SHarq, 2001. -128 b.
10. Rasulov A. Badiiylik –bezavol yangilik. -Toshkent: SHarq, 2007. -336 b.
11. Sodiq S. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: 2006. – 290 b.
12. SHarafiddinov O. O‘tkir Hoshimov. Adabiy portret. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi dasrligi. -Toshkent: Fan, 1999. – 160 b.
13. SHarafiddinov O. El ardoqlagan adib. «Bahor qaytmaydi» to‘plamiga so‘nggi so‘z. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1992. -217 b.
14. SHarafiddinov O. El ardog‘idagi adib. «Ikki eshik orasi» romanining VII nashriga so‘nggi so‘z. -Toshkent: Adabiyot va san’at, 2000. – 436 b.
15. G‘afurov I. O‘ttiz yil izhori. - Toshkent: Fan, 1987. -398 b.
16. G‘afurov I. Parvoz va‘dalari // “Bir tomchi shudring” to‘plamiga so‘zboshi. - Toshkent: 1970. –B. 3-5.
17. Hozirgi o‘zbek adabiyotining milliy o‘ziga xosligi. -Toshkent: Fan, 1984. – 200 b.
18. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b.

19. Haqqul I. E'tiqod va ijod. – Toshkent: Fan, 2007. – 248 b.
20. Haqqul I. Ijod iqlimi. – Toshkent: Fan, 2009. – 388 b.
21. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. Qissalar, sahna asarlari, hikoyalar. I jild. – Toshkent: SHarq, 2009. 448 b.
22. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. Qissalar, hikoyalar, hajviyalar, o'ylar. II jild. – Toshkent: SHarq, 2009. 448 b.
23. Hoshimov O'. Hadikli tushlar. Saylanma. Ikki jildlik. 2-jild. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2002. -447 b.
24. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Adabiyot va san'ati, 1989. 544 b.
25. [http: //www.liteinstitut.ru](http://www.liteinstitut.ru)
26. [http: //www.dissercat.com](http://www.dissercat.com)